


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgusidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020- yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 2240,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,5 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (24,8 %), savdo xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (22,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.


2020- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



Ma'lumot uchun: 2019- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 2130,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan (110,1 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2020- yil yanvar-aprel oylari davriga nisbatan xizmatlar hajmi (468,7 mlrd. so'mga) ko'paydi.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlarida (122,0 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (115,7 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (101,6 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (29,5 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab
chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2240,9	96,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	148,5	106,6
moliyaviy xizmatlar	496,5	129,6
transport xizmatlari	556,8	91,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	295,3	89,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	62,6	89,6
savdo xizmatlari	510,3	90,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	56,8	79,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	128,0	104,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	23,3	68,8
ijara xizmatlari	42,0	76,0
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	55,8	77,3
shaxsiy xizmatlar	74,2	81,1
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	30,9	56,8
boshqa xizmatlar	55,2	77,7

**2020- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da**



- | | |
|---|---|
| 1 Xizmatlar - jami | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar |
| 2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 3 Moliyaviy xizmatlar | 10 Ijara xizmatlari |
| 4 Transport xizmatlari | 11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 12 Shaxsiy xizmatlar |
| 6 Savdo xizmatlari | 13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar |
| 7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 Boshqa xizmatlar |

2020- yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (29,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %) hamda Ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,1 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2020- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da**

Transport xizmatlari	24,8 %
Savdo xizmatlari	22,8 %
Moliyaviy xizmatlar	22,2 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,6 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,7 %
Shaxsiy xizmatlar	3,3 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,5 %
Boshqa xizmatlar	2,5 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,5 %
Ijara xizmatlari	1,9 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,4 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,0 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (24,8 %), savdo xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (22,2 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	556,8 mld. so'm
	Savdo xizmatlari	510,3 mld. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	496,5 mld. so'm
	Boshqa xizmatlar	151,4 mld. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	148,5 mld. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	128,0 mld. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	74,2 mld. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	62,6 mld. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	56,8 mld. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	55,8 mld. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (556,8 mld. so'm), savdo xizmatlari (510,3 mld. so'm), moliyaviy xizmatlari (496,5 mld. so'm) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (148,5 mld. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2020- yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 510,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmidagi ulushi 22,8 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 80,5 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 6,7 % ni egallaydi.

2020- yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 496,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 129,6 % ni tashkil etdi.

**2020- yil yanvar-may oylarida moliyaviy
xizmatlarning tarkibi, % da**



**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
61-224-92-15**